5» raketasi ionsoferada kengligi 1800 km «deraza» «teshik» hosil qilib, u 1,5 soatdan keyin tolgan. Olimlarning hisobiga kora, agar qisqa vaqt ichida bu raketaga oxshash 125 ta raketa uchirilsa, Yerning ozon qatlamini yoq qilib yuborishi natijasida sayyoramizda organizmlar qirilib ketishi mumkin. Atmosferaning ifloslanishiда chekuvchilarning roli ham kundankunga oshib bormoqda. BMT ning rma'lumotiga kora, hozit dunyoda yiliga faqat sigaret chekilishi natijasida atmosferaga 10,5 t. Kadmiy, 14,8 t. Qorg'oshin, 48,4 t. Mis, 203,5 t. Rux, 966 t. Marganets va boshqa zaharli moddalar chiqari ladi. Qishloq joylarida atmosferaning ifloslanishida ayniqsa parrandachilik va chorvachilik komplekslari, goshut kombinatlari, qishloq xojalik mashinalari, kimyoviy og'itlar va zaharli ximikatlar koproq ta'sir etadi. Kimyoviy og'itlardan va ayniqsa pestitsidlardan notog'ri, me'ridan ortiqcha foydalaniш oqibatida u ekologiks istemaning buzilishiga sabab bolmoqda. Ma'lumotlarga kora shahar atmosferasi okeanlar ustidagi atmosferaga nisbatan 150 marta iflos ekan. Havoning kuchli ifloslanishi insonlar sog' ligiga, barcha jonzotlarga salbiy ta'sir korsatadi. Shaharlar va sanoat rayonlarida kishilar ortasida surunkali bronxit, nafas qisishi va opka raki kasalliklarining kopayishi kuzatiladi. Agar havoda oltingugurt oksidi kop toplanib qolsa kishilarda bronxit, gastrit, opka kasalliklari vujudga keladi. Atmosferadagi turli zararli gazlar osimlik va hayvonlarga ham zarar yetkazadi. Havoga chiqayotgan chang, qurum, tutun va oltingugurt gazlari, xlor, uglevodorod birikmalari, mishyak, surma, ftor va boshqalar yana yerga qaytib tushgach osimlik barglariga, tuproq va suv orqali osimlik ildiziga otadi. Natijada osimliklarning nobud bolishi, hosilning karnayishi, fotosintezing ozgarishi kuzatiladi, osimliklarning havoni O₂ bilan ta'minlash qobiliyati pasayadi. Bu esa oz navbatida inson salornatligiga katta zarar keltiradi. Bizda havo ifloslanishini kuzatish va nazorat qilish – monitoring yaxshi yolga qoyilgan. Korxonalar uchun havoni belgilangan miqdordan ortiqcha ifloslangani hollarida tolov va jarimalar belgilangan. O'zbekistonda «Atmosfera havosini muhofaza qilish tog'risida» maxsus qonun qabul qilingan. Bu qonun 1996 yil 27 dekabrda qabul qilingan. Yer yuzidagi barcha mavjud suvlar gidrosferani tashkil qiladi. Gidrosfera – deganda okean, dengiz, kol, daryo, yer osti suvlari va muzliklarini oz ichiga olgan Yerning suv qobig'i tushuniladi. Sayyoramizda dastlab hayot suv muhitida paydo bolgan, rivoyjlangan va tirik organizmlar uchun suvning ahamiyati kattadir. Suv tugamaydigan resurslarga kiradi va aylanma harakat natijasida suv zahiralari doim tiklanib turadi. Yer yuzidagi suv tugamaydigan resurs bolishiga qaramasdan inson bevosita ishlatishi

mumkin bolgan suv zahiralari juda ham cheklangan. Gidrosferadagi barcha suvlarning 96,5 % Dunyo okeanining shor suvlariga tog'ri keladi. Mayjud chuchuk suvlarning katta qismi muzliklarda (1,73 %) va yer osti zahiralarida (1,70 %) joylashgan. Shuni atish kerakki, yer ostidagi suv zahiralari aniq baholangan emas. Yer yuzida hozirgi vaqtida inson bevosita foydalanishi mumkin bolgan chuchuk suvlar miqdori gidrosferadagi umumi suv hajmining taxminan 0,3 % ni tashkil qiladi. Sayyoramizda daryo va kol suvlari bir tekis taqsimlanmagan va ayrim xududlarda suv tugaydig'an hamda juda sekin tiklanadigan resurs hisoblanadi. Biosferadagi jarayonlar va insonlar hayotida suvning ahamiyati juda kattadir. Kishilarning kundalik hayotini suvsiz tasavvur qilib bolmaydi. Suvning (suyuK. gazsimon, qattiq) bolishi turli joylarning ob-havo va iqlim sharoitining shaklanishida muhim rol oynaydi. Fotosintez jarayoni suv ishtirokida amalga oshadi. Suv tirik organizmlar uchun birlamchi hayot muhiti hisoblanadi. 1 tonna paxta olish uchun 10000 tonnagacha 1 tonna sun'iy kauchik olish uchun 3000 tonnagacha, 1 tonna nikel olish uchun 4000 tonnadan ortik suv sarflanadi. Maishiy ehtiyojlar uchun ishlataladigan suvning ortacha miqdori ham oshib bormoqda. Masalan : dunyo boyicha shaharlarda ortacha kundalik suv sarfi aholi jon boshiga 200 litrni tashkil qilsa, bu korsatkich Toshkentda 700, Moskvada 800 litrni tashkil qiladi O'zbekiston yerlari asosan Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon, Qashqadar yo, Surxondaryo, 0020irchiq va Ohangaron daryolari suvlarini bilan sug'oriladi. Daryolar suv oqimini tartibga solish uchun respublikada 53 ta suv ombori qurilgan. Mayjud ishlataladigan suvlarning 85 % qishloq xojaligiga, 12 % sanoatga va 3 % maishiy-kommunal xojalikka tog'ri keladi. Suvlarning ifloslanishi ham dolzarb ekologik muammolardan biri hisoblanadi. O'zbekistonning asosiy daryolari Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston xududlaridan ifloslanib keladi. Daryolar suvi-chorvachilik kompleksi, kommunal-maishiy oqavalari, sanoat oqavalari va katta Xajmda kollektor —drenaj suvlarini bilan ifloslanadi. Suvlarga pestitsidlar va zaharli kimyoviy birikmalarning koplab tushishi natijasida respublikaning ayrim xududlarida ichimlik suv muammosi keskinlashib ketdi. Ayniqsa, qoraqaopog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatida ichimlik suv sifatining yomonligi kasalliklarning ortishi, olimning kopayishiga olib keldi. Oxirgi yillarda yer osti suvlarini sifatining yomonligi kasalliklarning ortishi, olimning kopayishiga olib keldi. Oxirgi yillarda yer osti suvlarini sifatining yomonlashuvi kuzatilmogda. Farg'ona – Marg'ilon sanoat rayonida neft mahsuloti va fenollar bilan yer osti suvning ifloslanishi REM (ruxsat etilgan mikdor) dan yuz barobargacha ortiqligi qayd qilingan.

Toshkent viloyatida ham yer osti suvlarining mahalliy ota yuqori ifloslanishi kuzatiladi. Respublikamizda suvlardan oqilona foydalanish maqsadida ilg'or chet el tajribalari joriy qilingmoqda. Tomchilab sug'orish, suvlardan takror foydalanish oqavalarni tozalash shular jumlasidandir. Suv havzalariga tushadi gan sano at oqavalari keyingi 5 yil ichida 2 yarim marta kamay gan. Suvlarni me'yoriidan ortiq ifloslangani uchun jarima va tolovlar belgilangan. O'zbekiston Respublikasida suvdan foydalanish maxsus qonun asosida arralga oshiriladi. «Suv haqidagi va suvdan foydalanish» tog'risidagi qonun 1993 yil 6 mayda qabul qilingan. Shunday qilib, kishilik jamiyatida suvning ornini bosadigan boshqa hech qanaqa resurs yoqdir. Bu esa suvning bebahohi ekanligidan darak beradi. Kelgu'sida toza suv tanqisligi sezilsa, insoniyat bir qancha qoshimcha choralar korishga majbur boladi. Bunday choralar qatoriga muzlik suvlaridan foydalanish, dengiz va okean suvlarini chuchuklashtirib foydalanish va nihoyat yomg'ir suvlaridan foydalanish kabi vazifalar kiradi.

Mustaqil Vatanimizni asra va qadrla!

Dunyoning kunlik manzarasiga bir e'tibor bering: turli mojarolar, ur-yiqit, urush-janjal, qoporuvchiligi g'avg'olalar. Goyo zamin olovli bir ochoqqa aylanib qolayotgandek.

Shular haqida oylaganda, Prezidentimiz Islom Karimovning O'zbekistonning boyliklari kop, lekin bizning eng katta boyligimiz, eng yuksak qadriyatimiz — jamiyatimizda hukm surayotgan tinchlik, millatlararo dostlik va hamjihatli kdir, degan sozlarining mohiyatini anglab, tinch-totuv hayoti mizga shukronalar keltiramiz.

Mamlakatimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillarining bir oiladek ahil-inoq yashayotgani bu barqarorlikning muhim ustunlaridir.

— Shu tuproq, shu yer meniki, kindik qonim shu yerga tokilgan. Mahallada osgan im uchun ozbek tilini ona tilimidan yaxshiroq bilaman, — deydi samarqandlik Pak Li. — Ota-onam koreyalik bolsa-da, otgan asr ortalarida O'zbekistonni vatan tutishigan. Avval men, song singillarim shu zaminda tug'ildik. O'qib kamolga yetdik, hozir tadbirkorlik bilan shug'ullanaman. Gohida odamlar menga rus tilida murojaat qilsa, ozbekcha lutf qilaman. Kirmadir hayratga tushadi, kopchilik rahmat aytadi. Mahallamiz ahil, bordi-keldi uzilmaydi. Ayniqsa, toy-marakada gi bunday ahillik, yelkadoshlikka boshqa joyda guvoh bolish qiyin.

Mamlakatimizda hukm surayotgan bunday muhit oz-ozidan paydo bolgani yoq, albatta. Bu Prezidentimiz Islom Karimov rahnamoligida azaldan xalqimizga xos bag'rikenglik va insonparvarlik fazilatlariga tayangan millatlararo munosabatlarning prinsipial jihatdan yangi konsepsiysi izchil amalga oshirilayotgani natijasidir. Bu boradagi ishlar mamlakatimizning barcha fuqarolari uchun teng huquq va erkinlikni ta'minlashga yonaltirilgan. Bu muhim tamoyil O'zbekiston Konstitutsiyasida, boshqa milliy qonunchilik hujjatlarida mustahkamlab qoyilgan. O'zbekistonning millatlararo munosabatlarni mustahkamlash borasi dagi katta tajribasi butun dunyoda keng e'tirof etilmoqda.

O'zbekistonda yashab istiqomat qilayotgan millat va elatlar oz milliy madaniyati, tili, an'ana va urf-odatlarini rivojlantirishi uchun barcha shart-sharoit yaratilgan. Kop sonli millatlarning madaniyat markazlari faoliyati samarali yog'a qoyilgan bolib, gazeta, jurnallar nashr etilmoqda, radioeshtirish va telekorsatuvlar efirga uzatilmoqda.

Bugun har bir O'zbekiston fuqarosi, millatidan qat'i nazar, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlarda keng va erkin ishtiroy etayotir. Senat a'zolari, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi hamda mahalliy kengashlar deputatлari, yirik korxona va tashkilotlar rahbarlari orasida ham turli millat vakilla rini uchratish mumkin.

Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan 1992-yilda tashkil etilgan Respubлиka Baynalmilal madaniyat markazi mamlakatimizda millatlararo munosabatlarni mustahkamlash borasida korsatilayotgan e'tibor va g'amxo'rlikning yorqin namunasidir. Mazkur tashkilot tomonidan bir yuz qirqqa yaqin milliy madaniy markazlar faoliyati muvofiqlashtirilmoqda.

Milliy madaniy markzlarning erkin va mustaqil faoliyat yuritishi, oz urf-odat va an'analarini erkin davom ettirgan holda milliy bayramlarini otkazishi uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Ular tomonidan turli madaniy-ma'rifiy tadbirlar, anjumanlar, konsert dasturlari, festival va korik-tanlovlari otkazilmoqda. "O'zbekiston – umumiy uyimiz", "Qudratimiz – birlik va hamjihatlikda", "Vatan yagonadir – vatan bittadir" kabi shiorlar ostida mamlakatimizning barcha shaharlarida kotarinki kayfiyatda otkazilayotgan festivallar, davra suhbatlari kop millatli xalqimizning chinakam dostlik anjumaniga aylangan, desak, mubolag'a bolmaydi.

— Mamlakatimizda yuzdan ortiq millatga mansub fuqarolar kabi armanlar ham ahil-imloq, tinch-totuv yashab, mehnat qilmoqda, — deydi poytaxtimizdagi arman milliy madaniyat markazi raisi Martin Setyan. — O'zbekistonda kechayotgan tub yangilanishlar jarayoniga turli millat vakillari oz yutuqlari bilan munosib hissa qoshayotgani, ayniqsa, tahsinga loyiq. Ularning mehrinati e'zoz va e'tibor topib, davlatimizning eng yuksak mukofotlari, faxriy urmon va orclen-medallariga sazovor bolishmoqda.

Prezidentimiz Islom Karimovning shu yil 12-iyunda qabul qilingan “O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining yigirma ikki yillik bayramiga tayyorlarlik korish va uni otkazish toq‘risida”gi qarori asosida markazda maxsus dastur ishlab chiqilgan. Unga kora “Qadr-qimmatim, tayanchim va iftixorimsan, mustaqil O'zbekiston!” shiori ostida barcha viloyatlarda turli madaniy-ma'rifiy tadbirlar, «Vatan obodligi – kongil obodligi» shiori ostida davra suhbatlari, «O'zbekiston – umumiy uyimiz» shiori ostida an'anav iy dostlik va madaniyat festivallari otkazilmoqda.

Hozirga qadar festival doirasida Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda seminar va davra suhbatlari, milliy madaniy markazlar badiiy jamoalari ishtirokida konsert dasturlari tashkil etildi. Festivalning yakuniy bosqichi dekabr oyida Toshkeint shahrida bolib otishi rejalashtirilgan. Bu tadbirlarda qatnasha yotgan turli millat va elat vakillari O'zbekistondek jannatmonand va betakror yurtda tug'ilib, oz orzu umidlariga yetishayotgan idan baxtiyorligini faxr-iftixor bilan ta'kidlashmoqda.

Qaysi mamlakatda tinchlik, xotirjamlik hukmron bolsa, osha yerda farovonlik, osha yerda baraka va rivojlanish boladi. Buni mustaqillik yillarda mamlakatimizda amliga oshirilgan izchil islohotlar, erishilgan yutuqlar misolida ham korish mumkin. Xalqimizning niyati esa bitta, dunyoda tinchlik bo'sin, keksalarimiz aytganidek, jonajon yurtimizga koz tegmasin.

Ommaviy axborot vositalarining hayotimizdag'i orni

27-iyun kuni — Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni deb e'lon qilingan bu sanaga bu yil roppa-rosa yigirma yil tolayotgani nafaqat soha xizmatchilari, balki ularning ijod va mehnat mahsulidan bahramand boladigan millionlab mushtariylar, barcha ziyo'lilarimiz tomonidan mamlakatimizda qutlug' bayram sifatida nishonlanayotgani hammamizga katta i'mammuniyat yetkazadi.

Hech s hubhasiz, ana shu tarixan qisqa davida O'zbekiston ommaviy axborot vositalari jamiyatimizda amalga oshirilayotgan chuqur ijtimoiy-siyosiy islohotlar, zamon talablariga javob beradigan demokratik yangilanishlarning kozgusiga, odamlarimizni, keng ommani yangicha fikrashga, ma'naviy uyg'oqlikka, ongu tafakkurimizni ozgartirishga da'vat etadigan qudratli kuchga, qisqacha aytganda, kundalik hamrohimizga aylanib borayotganining guvohi bolmoqdamiz.

Yurtimizda yangi hayot qurish, yangi marralarni egallahas borasida bosib otgan mustaqil taraqqiyot yolimizni sarhisob qilar ekanmiz, Vatanimiz erishgan barcha-barcha yutuqlarda, hayotimizda amalga oshirilayotgan, ozgalarning havasini tortayotgan ulkan ozgarishlarda siz, azizlarning munosib hissangiz borligini xalqimiz yaxshi biladi va yuksak qadrlaydi.

Matbuot va ommaviy axborot vositalarining hayotimizdag'i orni va ta'siri ortib, xalqimiz ortasida "Tortinchi hokimiyat" sifatida tobora katta ishonch va hurmat czozonib borayotgan ekan, buning negizida avvalambor jurnalistlar, kop holatlarda kozga tashlanmaydigan kamtarin muharrirlar, no shirlar, matbaa sohasi va zamonaviy axborot-kommunikatsiya tarmoqlarining ming-minglab zahmatkash ishchi-xizmatchilarining kundalik og'ir va sermashaqqat mehnati mujassam.

Shu borada jamiyatimizning bugungi va ertangi kuni boladimi, uzoq kelajagi va porloq ufqulari boladimi, bir soz bilan aytganda, O'zbekistoni dunyodagi taraqqiy topgan mamlakatlar qatoriga kotarishdek yuksak marralarni kozlagan qonunlarimiz, dasturlarimiz boladimi – bularning barchasini amalga oshirish uchun xalqimizga ochiq va ravshan qilib yetkazish, el-yurtimizni safarbarlikka chorlash, ruhini kotarish yolda matbuot va axborot vositalarining orni va ahamiyati beqiyos.

Matbuot, televideniye, turli informatsiya vositalarining – bugungi globallashuv zamonida jahon miqyosida barcha-barcha olkalar va xalqlar hayotida hal qiluvchi orin olayotgan bu sohaning tobora oshib borayotgan ahamiyati va ta'siri haqida ortiqcha gapirishga hojat yoq.

Buguagi kunda jamiyat, fuqarolik institutlari, qolaversa, har qaysi insonnинг hayoti aynan axborot-kommunikatsiya sohalari bilan uzviy va cha'mbarchas bog'lanib borayotganini inobatga olmaydigan mamlakat oz

rivojida umumbashariy taraqqiyotdan chetda qolib ketishi va intellektual boyligidan judo bolishi tabiiyidir.

Hayotda oz tasdig'ini topgan ana shu haqiqatni hisobga olgan holda, mamlakatimizda ommaviy axborot vositalari faoliyatini davr talablari darajasiga kotarish uchun ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, soha xodimlarining ijtimoiy hayotdagi orni va nufuzini oshirish, mashaqqatlari mehnatini rag'batlanirish maqsadida markaziy va hududiy tele-radiokanallar, viloyat va tuman gazetalarida, mavjud 150 dan ziyod nashriyot, 1630 dan ortiq matbaa korxonasida keng kolamli islohotlar, texnik va texnologik yangiliklar jarayonlari amalga oshirilganini alohida ta'kidlash lozim. Shular qatorida matbuot va ommaviy axborot vositalari, nashriyot, matbaa korxonalarini va matbuot tarqatuvchi tashkilotlar uchun qoshimcha soliq imtiyozlari va afzalliklar berilgani, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash boyicha olib borilayotgan ishlar bugungi kunda ozining katta amaliy samarasini bermoqda.

Ayni vaqtida aholining tezkor va haqqoniy axborot olishiga bolgan ehtiyojini yuksak darajada ta'minlash, telekorsatuvlarning mazmuni va sifatini oshirish maqsadida mamlakatimizda raqamli televideniyega otish boyicha keng kolamli ishlar olib borilmoqda. Faqatgina joriy yilning ozida bu boradagi korsatkichni 42 foizdan 45 foizga yetkazish kozda tilayotgani ayniqsa e'tiborlidir.

Jumladan, oxirgi vaqtida O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi tarkibida "Madaniyat va ma'rifat", "Dunyo boylab", "Bolajon" telekanallari tashkil etilgani, hech shubhasiz, bu yoldagi yana bir muhim qadam boldi.

O'zbekiston ommaviy axborot vositalarining salohiyati to bora osib borayotganining tasdig'ini yurtimizda ommaviy axborot vositalari soni 1991-yilga nisbatan qariyb 3,5 barobar ortib, 1326 taga yetgani, fuqarolik jamiyatining muhim sharti bolgan nodavlat ommaviy axborot vositalari tarmog'i shakllanib, samarali faoliyat korsatayotgani, an'anaviy axborot tizimlari bilan birga internet saytlari, internet-radio, internet-televideniye ham hayotimizdan keng orin egallab borayotgani misolida yaqqol korish mumkin.

O'zbekiston tele-radio kanchali tomonidan tayyorlanayotgan korsatuv va eshittirishlar global tarmoq orqali real vaqt rejimida

dunyoning Koplab davlatlariga uzatilayotgani, yurtimiz ommaviy axborot vositalarining aksariyati internetda oz veb-saytiga ega ekanimizning xalqaro mediamakondan munosib orin egallashi uchun xizmat qilishi shubhasiz.

Bugungi bayram kunida nafaqat ana shunday ijobiy natijalar haqida soz yuritish, balki matbuot va ommaviy axborot vositalarimizning oldida turgan dolzarb vazifalar, yolumizda hali-beri tosiq-g'ov bolib, oz yechimini kutayotgan masalalar haqida xolisona va atroficha fikr almashib olishimiz ayni mudda o bolardi.

Shu ma'noda, ma'naviy hayotimizni, bu yonalishda olib borayotgan siyosatimizni, bugun shiddat bilan ozgarib borayotgan zamon bilan uyg'un va hamohang rivojlantirish maqsadida bizning ozligimiz, hayot va tafakkur tazrimizning ifodasi bolgan milliy qadriyatlarni koz qorachig'idek asrab, shu bilan birga, jahon miqyosida erishilgan, e'tirof etilgan umumbashariy yutuqlarga tayanib, ularni ozlashtirib ish olib borishimiz zarur. Va aynan ana shunday mezonlar matbuot va ommaviy axborot vositalari faoliyatining asosiy tamoyillarini tashkil qilishi kerak.

Hozirgi vaqtida mamlakatimizda ana shu talablarga javob bera o'ladigan, eski tuzum asoratlari va qoliplaridan butunlay xoli bolgan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini, chet tillarni puxta egallagan jurnalistlarning yangi avlodи shakllanib kelayotgani barchamizni quvontiradi.

Barchamizga yaxshi ayonki, el-yurtimiz, jamiyatimiz jurnalistlar faoliyatiga avvalambor ularning oz Vatani, oz xalqi hayotiga daxldorlik tuyg'usi, grajdaniq pozitsiyasi, ijtimoiy mas'uliyatiga qarab baho beradi va oylaymanki, bu eng tog'ri va haqqoniy bahodir.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, bugungi notinch va tahlikali zamonda yurtimizdagi tinch va osuda, erkin va farovon hayotni asrash va mustahkamlashda siz, aziz jurnalistlardan xalqimiz yanada koproq faollik va jonbozlik korsatishni kutishga haqlidir. Ayniqsa, unib-osib kelayotgan yoshlarimizni mustaqil fikrlaydigan, bizning qanday buyuk tarix va meroesga ega ekanimizni anglab, ana shu bebafo boylikni qadrlab yashaydigan, biz boshlagan ulug' ishlarning munosib davomchilari bolgan insonlar etib voyaga yetkazishda matbuot ahlining haqqoniy sozi, uning

ta'siri g'oyat muhim, aytish mumkinki, hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini hech qachon esimizdan chiqarmasligimiz lozim

Globallashuv va ma'naviy ta'hdid

O'zbek xalqi oz mustaqilligini qolga kiritganimidan buyon yoshlarimiz va bolalarimiz ma'naviy-aqloqiy tarbiyasi tizimida Vatan tuyqusi, vatanga e'tiqod, vatanparvarlik, insonparvarlik va milliy-ma'naviy qadryatlarni shakllantirish, ularni oz xalqi va vatanining sodiq farzandlari qilib tarbiyalash hayotimiz ma'naviyati va mazmuniga aylanmoqda.

Bugungi kunga kelib yoshlar ma'naviyatini shakllanishida milliy-ma'naviy qadryatlarning aqamiyatini oshirish, ularni milliy an'analarga sodiq ruhda tarbiyalash, ularni barkamol shaxs etib tarbiyalash masalasi davlat siyosati darajasiga kotarildi. Zero yurtboshimiz ta'kidlaganidek: «O'zbekistonning yangilashning oliy maqsadi ana shu an'analalarini qayta tiklash, ularga yangi mazmun bag'ishlash, zaminimizda tinchlik va demokratiya, farovonlik, madaniyat, vijdon erkinligi va har bir kishini kamol toptirishga erishish uchun zarur shart-sharoitlar yaratishdir».

Xalqaro munosabatlar tizimida yuz berayotgan ozgarishlar natijasida milliy havfsizlik, mintaqaviy havfsizlik va xalqaro havfsizlik va ularning ozaro bog'liqligini anglashga e'tibor ortib bormoqda bugungi dunyoning axborot havfsizlik holati “Havfsizlikka bolgan zamonaviy yondashuvlarni ishlab chiqishga va milliy-mintaqaviy xalqaro havfsizlikka nisbatan konseptual qarashlarni rivojlantirishga undalmoqda”.

Axborot globallashushi va yoshlar ma'naviyati har qanday axborot oqimining yoshlari ma'naviyatiga ta'siri xususidagi masalalar zamirida jamiyatimizning davlatimizning milliy havfsizligi nazarda tutiladi.

Bugungi yoshlarimizning aksariyati asosiy axborot manbai sifatida internetga murojaat qilmoqda lekin ularda axborot immuniteti shakllanmaganligi bois “internet orqali ma'naviyatga salbiy tasr vujudga kelishi mumkin”.

Ularning ma'naviyatiga ijobiy ta'siri esa zehni otkir dunyo bilimlarini egallagan bolishi, vatan manfaati yoldida hizmat qilishlariga begona g'oyalarga berilmasligiga undaydi. Ularni eng avvalo vatanga etiqodli, urf-odat qadriyatlarimizga sadoqatli bolishi istalgan buzg'unchi axborotlarga nisbatan oz axboroti shakllanadi.

Butun jahonda bolayotgan olamsizumul ozgarishlar, iqtisodiy taraqqiyot ilm-fandagi yangiliklar ixtiolar bularning hammasi ommaviy axborot vositalari orqali namoyon bolmoqda.

Globallashuv asrida axborotga bolgan talab kundan – kunga oshib bormoqda demokratik jamiyatda ommaviy axborot vositalari tele-radio kanallar muhim ahamiyatni kasb etadi.

Globallashuv jarayoni qonuniy jarayon bolib, oziga xos hususiyatlarga ega ulardan biri davlatlarni xalqaro maydoga erkin chiqishi, ular bilan yaqinidan hamkorlik olib borish hamda oz milliy manfaatlarini turli xil xalqaro tashkilotlar doirasida taminlashga keng imkoniyatlarini ochib beradi.

Globallashuv jarayonining oziga xos ijobji tomonlari bilan yonmayon salbiy jihatlarini mavjud har bir davlatdag'i xoh ijobji xoh solbiy voqe'a xodisalar dunyoning boshqa bir mintaqasida juda tez tarqalib oz ta'sirini korsatmoqda buning oqibatida mintaqaga havfsizligi va barqarorligiga jiddiy taxdidlar vujudga kelmoqda bu holat esa milliy va mintaqaviy havfsizlikni ta'minlashda jiddiy muammolarni keltirib chiqarmoqda.

“Aslida hayotning ozi turli-tuman g'oyalar kurashidan bahsumunozaralardan iborat taraqqiyotining ma'no-mazmuni kerak bolsa falsafasi ham shunda ammo har qanday tahdid yoki tahlika oldida vahimaga tushmasdan, ana shu kurash va sinovlarga doimo tayyor turishida, Ogoh va sergak bolishdadir” degan edi. Prezidentimiz I.A. Karimov.

Inson omili nuqtai nazaridan organadigan bolsak, mafkuraviy immunitet — har qanday axborot ta'sriga tushub qolmaslik avvalo oziga osha inson ong-u tafakkuri idroki otkirligiga, chuqur mushohada qilish qobiliyatiga bog'liq.

Umuminsoniy ma'naviyat turli – tuman millatlarning oziga xos boshqa millatlar uchun ham ma'naviy ozuqa bera oladigan qirralarini ozida mujassamlashtirganligi bois, tabiiyki keng yoyilib boradi hamda jahonda yashayotgan turli millatlarning ma'naviyati rivojlanishiiga yordam beradi.

Uning zamirida zoravonlik yoli bilan ozga millat va ellatlar ongi, qalbini egallash maqsadi turmaydi, balki ma'naviy tenglik samimiylik, ozaro doslik, qardoshlik va bir-birini ulug'lash kabi umuminsoniy qadryatlar turadi. Shuning uchun ham turli millatlar qadryatini boyitib boradi. Ularni yaqinlashtiradi va ma'naviyatini yuksalishiga yordam beradi.

Yoshlar ma'naviyati uni milliy qadryatlari asosida shakllantirish kun tartibidagi do'lzarb vaziatlaridandir. Shakllanish jarayoni oziga xos tosiqlar (ichki va tashqi)dari otib amalga oshiriladi.

Buning uchun:

- uzluksiz ta'lim tizimida milliy qadriyatlarimizning mazmun mohiyatini murabbiylik odatlaridan tashqari har bir fan tarkibida uqtirib borish;
- globallashuv jarayonida har bir oquvchi, talabada tarmash didini shakllantirib borish;
- ommaviy madaniyatining zararli oqibati haqida tushunchaga ega bolish;
- milliy an'analariimiz, qadriyatlarimiz, urf odatlarimizga sadoqatli bolish kabi fazilatlarni shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

XXI asr – axborot texnologiyalari asri

XXI asr – yangi axborot texnologiyalari asri. Ushbu davrda axborot texnologiyalariga oid bilimlarga ega bolmay turib zarur konikma va malakalarni shakllantirib bolmaydi. O'quvchilarda xayotiy zarur bolgan XXI asr bilim va konikmalariga ega bolishlari ularni key ingi xayotga tayyorligining bosh me'zoni hisoblanadi. Ushbu sharoitda zamonaviy ta'limning maqsad va vazifalari ham ozgarib boryapti, an'naviy ta'lim yondoshuvidan XXI asr ta'lim yondoshuviga, ya'ni shaxsga yonaltirilgan ta'limga otilmoqda. Bunday ta'lim yondoshuvining asosida oquvchi shaxsining tola rivojlanishi, tez ozgaruvchan xayotga xar taraflama tayyor bolishi, ularning mustaqil ravishda bilim olish konikmalarini, ijodiy fikrlashini rivojlantirish, ulkan axborot makonida axborotlarni tanqidiy nuqtai nazaridan tog'ri izlash, tanlab olishni, oldida turgan mauammolarni nafaqat kora bilish, balki ularni ifodalash va hal eta olish yotadi.

Axborot texnologiyalari, kompyuter va kompyuter dasturlari insonlar bajaradigan ishlarni yengillashtirish, samarali faoliyat yuritish va bilimlarga ega bolish uchun yaratiladi, yangi imkoniyatlar ochadi va bizdan yangi bilim va konikmaga ega bolishimizni talab etadi. Shu orinda Kreyg Barretning sozlarini keltirish orinli boladi: "Mojizani kompyuterlar emas, balki oqituvchilar yaratadi". Ya'ni, axborot texnologiyalari

vositalari ta'lim sifatini oshirishga xizmat qilishi, bu jarayonda ular faqatgina bilimlarni yig'ish vositasasi sifatida qatnashishi nazarda tutiladi.

Ta'lim tizimi oldiga qoyilayotgan ulkan vazifalarni amalgalashirishda oqituvchilardan XXI asr konikma va malakalarga ega bolishni talab etadi. Bugungi kunda XXI asr konikma va malakalariga oid koplab tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, UNESCO tomonidan ishlab chiqilgan "O'qituvchilarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga oid bilimlarga ega bolishlik boyicha tavsiyalar (Information and Communication Tools Competency Framework for Teachers (ICT CFT))", XXI asr konikma va malakalari boyicha hamkorlik tashkiloti (Partnership for 21st Century Skills – www.21stcenturyskills.org)dir. Bundan tashqari XXI asr konikma va malakalari boyicha alohida izlanishlarni Apple Computer, Cisco Systems, Dell Computer Corporation, Microsoft Corporation, Intel Corporation tashkilotlari ham olib bormoqda.

XXI asrda mehnat bozori ish orinlarini ozgarishiga, yangilarini paydo bolishiga ta'sir etar ekan. ta'lim tizimi ham shunga mos ravishda javob berishi kerak. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) ta'lim jarayoniga joriy etish oqituvchilarga XXI asrda muvaffaqqiyatga erishish uchun muhim bolgan konikmalarni shakllantirishda eng muhim vositalardan biri bolib xizmat qiladi.

AKTni ta'lim jarayoniga joriy etish oqituvchilardan bir qator konikma va malakalarga ega bolishlikni talab etadi: didaktik materiallarni va faoliyatiga oid xujjatlarni tayerlashda matn muxarriridan samarali foydalanish, multimedia taqdimotlarini tayyorlash, tarmoq ichida ma'lumotlarni izlash va muloqot qilish.

Ushbu vazifalarni bajarishda oqituvchilardan kompyuter savodxonligiga ega bolishlik talab etiladi. Bugungi kunda kompyuter savodxonligi keng qamrovli tushuncha bolib, oz ichiga juda ham koplab konikmalarni oladi. Shular ichidan oqituvchilar tomonidan kompyuter savodxonligiga ega bolishlikning eng kerakli va zarur bolgan tayanch qismini ajratib olish muhimdir.

Fan oqituvchilarining AKT savodxonligi boyicha egallashi lozim bolgan tayanch konikmalar:

- Kompyuter haqida tushunchaga ega bolish va uning ishlash prinsiplarini bilish (asosiy va qoshimcha qurilmalari haqida ma'lumotga ega bolish);
- Dasturiy ta'minot haqida bilimlarga ega bolish;

- Didaktik materiallar va ishchi xujjatlarni tayyorlashda matn muxarirlari, elektron jadvallar va boshqa amaliy dasturlar toplamidan foydalana olish;
- Internet tarmog'i imkoniyatlaridan foydalanishni bilish.

Yuqorida keltirilgan konikmalar AKT savodxonligiga erishish uchun zarur bolgan minimaI konikmalar hisoblanadi. Bugungi kun oqituvchisi uchun axborot texnologiyalari uning kasb faoliyatidagi vazifalarnigina (dars rejasini tuzish, taqdimotlar yaratish, Internet tarmog'idan oz faniga oid materiallarni topplash) bajarish uchun emas, balki oqitadigan fani yuzasidan didaktik materiallar yaratish, oquvchilarning oquv faoliyatini tashkil etishiда AKT vositalaridan foydalanish (kompyuter tarmog'i orqali turli vazifalar berishi, Internet resurslarini yaratish va ularda ta'lim materiallariň i joylashtirish) uchun ham xizmat qilishi kerak.

Aloqa muzeyi

Toshkent shahrida mamlakatimizda telekommunikatsiya sohasi tashkil etilishi va rivoqlanishi yotini namoyish etuvchi, 400 dan ortiq turli eksponatlardan jamlangan Aloqa tarixi muzeysi oz faoliyatini boshladi.

Muzey qurilishi O'zbekiston aloqa va axborotlashtrish agentligi tashhabbusi bilan aloqa sohasi korxonalarini hisobiga qurildi. Bir yil muddat ichida zamnaviy uch qavatli bino binyod etildi, unda milliy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi yutuqlar va rivoqlanish bosqichlari keng ekspozitsiyasi joylashtirildi. Muzey kolleksiyasini toplashda ozi uchun qimmatli tarixiy buyurnlarni xolisona taqdim etib janoatchilik ham oz hissasini qoshdi.



Uch qavatli muzey turli ekspozitsiyalarga boy: misol uchun yuqorida tasvirlangan, bir necha yuz yillar davomida foydalilanilgan pochta aravasi maketi birinchi qavatda joy lashtirilgan. Maket doimo oz ishining ustalari deb hisoblanigan Qoqonlik hunarmandlar tomonidan haqiqiy kattaligida tayyorlangan. Bundan tashqari, muzeyning shu qavatida mutaxassislar, olimlar, tashrif buyuruvchilar ortasida muloqot va norasmiy uchrashuvlar hamda munozaralar otkazish joyi tashkil etilgan.



Ikkinci qavatda muzey kolleksiyasining asosiy qismi joy lashgan. Bu yerda O'zAA A tarkibiga kiruvchi sohalar yuqori texnologik korxonalarini hamda O'zbekistonning yetakchi mobil aloqa operatorlari ekspozitsiyalari tomoshabinlarga taqdim etiladi. Milliy AKT sohasini yaratish yoli namoyish etilgan — telekommunikatsiya texnologiyalarining tarixiy rivojlanishi shajerasi eng asosiy eksponat hisoblanadi.



«O'zbekiston pochtasi» stendlarida Temuriylar davridan boshlab, uning zamonaqiy rivoqlanish bosqichigacha bolgan davri ozbek pochtasining tashkil topishi taqdirm etilgan. Misol uchun, qoriqlashda gulxan, tutun va quyosh nuri yordamida olinadigan signal xabarlaridan foydalilanigan qadimiy qal'a maketini korish mumkin. Bundan tashqari, pochtachilar turli tarixiy davrlarda foydalangan asboblar va maxsus kiyimlari ozgarib borishini kuzatish mumkin. Masalan, stendlarda otgan asr boshlarida pochtachilar haltasi, 1916-yil pochta xizmatchilari kiyimlari predmetlari, muhrrlar namunalari, griflar, shtempellar namoyish etilgan.




1992-yil 26-avgust kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov tomonidan O'zbekiston hududida birinchi mobil aloqasi amalgalashirilgan mobil telefoni muzey ekspozitsiyasi nodir eksponatlaridan biri hisoblanadi. Shunday qilib, ushbu mobil apparati O'zbekistonda IT-industriyasiga jadal rivojlanayotgan segmentlaridan biri rivojlanishida birinchi qadam bolib qoldi. Bundan tashqari, milliy mobil aloqa operatorlari stendlarida mamlakatda mobil aloqa paydo bolgan paytdan foydalanan ilgan turli standart mobil telefonlari joylashtirilgan.


1976-yil 24-avgust kuni oyga lunoxod tushirilgan, uning uskunalaridan bir qismi O'zbekistonning «Koinot» korxonasida tayyorlangan. Ushbu apparatning modeli ham muzey ekspozitsiyasini toldirdi. Bugungi kunda ham korxona qishloq hududlari uchun mini-ATS'lar va ekspozitsiyalarda taqdim etilgan raqamli tyunerlar kabi yuksak texnologik mahsulotlar ishlab chiqarish bilan oz an'analarini davom ettirmoqda.



O'zbekistonda telefon aloqasi rivojlanishi aks ettirilgan stend juda qiziqarli. Ekspozitsiyada mamlakatda asr boshidan foydalanilgan telefon modellari joylashtirilgan. Ularning ba'zilari ishlab chiqarilganligiga 60 yildan kop bolgan bolsa ham ularning barchalari telefon tarmog'iiga ulangan va har bir istovchi uarning xizmatidan foydalanishi mumkin. Muzeyning yana bir e'tiborga loyiq eksponati — bu O'zbekistonda mustaqillik yillardida chiqarilgan pochta markalari hamda XIX asr boshlariga mansu b kartochkalar va otkritkalari kolleksiyasi hisoblanadi.



Uskunalaridan tashqari 1991-yildan boshlab aloqa va axborotlashdirish sohasidagi qonunchilik hujjatlari namunalari, avvalgi yillar qoidalari hamda hujjatlar namunalari ekspozitsiyada katta orin egallagan. Muzey kolleksiyasining interfaol tarkibiy qismini ham korsatib otish lozim — raqamli terminallar, ularda muzeyni qurish va uning koleksiyasini yaratish barcha bosqichlari haqida videofilmni tomosha qilish mumkin.



Xronologiya, tarixiy ahamiyati

Tarixni anglab yetish uchun asosiy manbalar bilan birga Yordamchi tarix fanlarini ham chuqur bilish zarur. Tarixni o'rganishda tadqiqotchi qator maxsus va yordamchi tarix fanlaridan keng ko'lamda foydalanmog'i lozim. Yordamchi tarix fanlari bir-biri bilan bog'liq, bir-birini to'ldirsa-da, ularning har birining o'z maqsad va vazifalari o'z yo'nalishi, usullari va usulublari mavjud.

Yordamchi tarix fanlarining har birining alohida fan va tadqiqot predinetiga ega. Masalan: *Xronologiya* – turli xalqlarda va turli tarixiy davrlarda vaqtini qanday hisoblashganini, ularni bir-birlari bilan qanday bog'lash, taqqoslash mumkinligini, tarixiy voqealarning sanalarini aniqlaydi. *Numizmatika* – tangalar tarixi bilan shug'ullanadi, *geneologiya* – shajara va sulololalar tarixini, *metrologiya* – uzunlik, og'irlilik o'chovlari va o'chov birliklarini, *paleografiya* yozuvlarning paydo bo'lishi va

rivojlanishini, arxeografiya – hujjatlarni chop etish usullari va uslublarini, *tomonimika* – joy nomlari tarixini, tarixiy geografiya - *sferistikika* – muhrlar tarixi bilan shugullanadi. Ushbu fanlarning har biri o‘z o‘rganish yo‘nalishiga ega bo‘lsa-da, ular bir-birlari bilan uzviy boglangan va manba shunoslikni tashkil etadi, ular manbalarni chuqur o‘rganishga qaratilgan. Mazzur fanlarni an`anaviy tarzda “Yordamchi tarix fanlari” deb ataymiz. Ular tarixni har tomonlama mukammal o‘rganishga xizmat qiladi. Bugungi kunda yuqorida qayd qilingan fanlarning ko‘pchiligi alohida mustaqil fanlar darajasida bo`lib, ularga nisbatan “*Maxsus tarixiy fanlar*” iborasi ko‘pchilik tomonidan qabul qilingan. Bu fanlar mazmuniga ko‘ra tarixning quyidagi sohalarini – ijtimoiy, iqtisodiy (savdo-sotiq, tovar pul munosabatlari, soliq, ernen maydoni) siyosiy, madaniyat, san’atni o‘rganadi.

Yordamchi tarix fanlari sohalariga tarixchilardan tashqari o‘z tadqiqotlari bilan ekologiya, geografiya, irrigatsiya va boshqa mutaxas sislar ham murojaat etadilar.

Xronologiya - yordamchi tarix fanlaridan biri bo`lib, u vaqt to`g‘risidiagi fandir. Xronologiya so‘zi grekcha so‘z bo`lib, “*xronos*” – vaqt, “*Zegos*” – fan, ya`ni vaqtini o‘rganish haqidagi fan deganidir. Xronologiya vaqtlarni o‘rganish, hisoblash haqidagi fan sisatida ikki qismiga bo`linadi, bular astronomik (matematik) xronologiya va tarixiy xronologiyadir. Astronomik (matematik) xronologiya osmon jismlarining siljishi to`g‘risidiagi aniq astronomik davrlarning vaqtini aytib berish uning vazifasi hisoblanadi.

Tarixiy xronologiya tarixiy taraqqiyot davomida vaqtini hisoblash sistemasini o‘rganadi, ularning o‘zaro bog‘ligligini, vaqlarni bir hisob sistemasiidan ikkinchisiga aylantirish uslublarini ishlab chiqadi. Tarixiy xronologiya yuqoridagi hisoblash sistemasiidan tarixiy vaqlarni hisoblashda amalda foydalanadi va tarixiy manbalardagi sanalarning aniqligini tarixiy tahlil qiladi.

Insoniyatning xo‘jalik hayotidagi ehtiyoji vaqtini hisoblash zaruratini yuzaga kelirdi. Qadimda vaqtini hisoblashda tabiatning doimiy takrorlanib turuvchi hodisasi bo‘lgan sutka, tun, kun, oy fazalarining o‘zgarishi, ernen yillik aylarning harakatidan foydalanilgan. Asta-sekin vaqtini aniq hisoblashga bo‘lgan ehtiyoj yuzaga keldi. Buning uchun osmon jismlar harakatini, umuman astronomiyani bilish zarur edi. Bundan tashqari yana bir vazifa ni, kun, oy, yillar o‘rtasidagi farhlarni aniqlash zarurati ham tug‘ildi. Buning uchun esa matematik hisob-kitobni puxta bilish lozim edi.

Xronologiya bilim sohasi rivojlarishiga qadimgi Yunoniston va Rim olimlari Erot Kalipp, Gipparx, Varron, Ptolomeylar katta hissa qo'shganlar.

Gipparx - (eramizgacha 190-125 yillar) birinchi bo'lib o'lchamini va undan Ergacha bo'lgan masofani aniqlagan. Uning shaxsiy kuzatuvlari natijasida quyosh yilining uzunligini d'eyarli aniq hisoblangan (xato 6 daqiqalari). Olim o'pts uchun ulkan hisoblangan 850 ta yudduzlarning xolati.

Klavdiy Ptolemey - mashhur "Almagest" asari muallifi. Asar o'rta asrlargacha astronomiyaga oid asarlarning sarasi hisoblangan. Shuningdek. Ptolemey sakkiz kitobdan iborat "Geografiya" asarining muallifi hamdir. U kartografik proektsiyalar nazariyasini ham yaratgan. Uning "Podshohlarning xronologik jadvali" asari xronologiyaga oid muxim manba hisoblanadi.

MUNDARIJA

| | |
|----------------------------------------------------------|----|
| SO'Z BOSHI | 3 |
| O'ZB EK TILINI ORGANAMAN | 4 |
| TIL-MA'NAVİYAT KO'ZGUSI..... | 4 |
| УЗБЕКСКИЙ АЛФАВИТ (O'ZBEK ALIFBOSI)..... | 7 |
| TANLANGAN KASBDA O'ZBEK TILINING ORNI | 9 |
| HARBIY TA'LIM..... | 9 |
| O'ZBEKİSTON - MENİNG VATANIM | 10 |
| DUNYODA TINCHLIK VA OSOYISHTALIK | 11 |
| DUNYONING TANIQLI OLIMLARI | 14 |
| O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASI QUROLLI KUCHLARI | 15 |
| JISMONIY TARBIYA VA SPORT | 15 |
| BUYUK SARKARDALAR | 18 |
| VATAÑ HIMOYACHILARI | 19 |
| O'ZBEK BADIY SAN'AT TURLARI | 20 |
| EKOLOGIYA | 29 |
| MUSTAQIL VATANIMIZNI ASRA VA QADRLA! | 41 |
| OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING HAYOTIMIZDA GI ORNI | 43 |
| GLOBALLASHUV VA MA'NAVİY TAHDID | 47 |
| XXI ASR – AXBOROT TEKNOLOGIYALARI ASRI | 49 |
| ALOQA MUZEYI | 51 |
| XRONOLOGIYA, TARIXIY AHAMIYATI | 57 |

MUSTAQIL SHUG'ULLANISH UCHUN DIDAKTIK MATNLAR VA TOPSHIRIQLAR

(Rusiyaboni maxsus fakultet talabalari uchun)

Muharrir: Abdullaeva S.X.
Sahifalovchi: Umarova K.X.

Bosishga ruxsat etildi: 01.07.2014. Bichimi 60[84/16
Times garniturasi. Ofis qog'ozsi. Printerda chop etildi
Sharqli.b.t.:4,0 . Adadi: 50. Zakaz: № 01-07.

"IMPRESS MEDIA" MCHJ bosmaxonasida chop etildi
Korxona manzili Yakkasaroy tumani, Qushbegi ko'chasi, 6-uy





